Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjie	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikromovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashtirishning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari	2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors	2130
Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусаинов Фолиб Рашидович	
Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari.....	2137
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari	2141
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi.....	2146
Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li	
Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin?.....	2150
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	
Comparative literature, linguistics, and translation studies: convergences and contrasts.....	2154
Bukhara State Technical University	
Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati.....	2159
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna	
Oilaviy tadbirkorlik doirasida gulchilikni rivojlantirish	2165
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	



Factors for developing innovative infrastructure in Uzbekistan.....	2170
Uzaydullaev Sherzod Shukurullaevich	
Raqamli transformatsiya va boshqaruvda avtomatlashtirish.....	2181
Rasulova Nargiza Shavkatovna	
Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi va unga qo'yiladigan chora tadbirlar.....	2184
Shakarov Qulmat Ashirovich	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo'llari.....	2189
Javliyeva Gulasal Bahridin qizi	
Islomiy moliyaviy instrumentlar va ularni hisobga olishning tijorat banklari buxgalteriyasiga ta'siri.....	2195
Valiyeva Oydin Orifjonova	
Estetik va lingvistik komponentlarning integratsiyasi: badiiy matnlar asosida til o'rgatish tajribalari.....	2201
Salomova Malika Zoxirovna	
Til o'rgatishda noverbal kommunikatsiyaning psixolingvistik asoslari.....	2206
Kazakova Dilora Gaffarovna	
Adabiy matnlar orqali til o'rgatish: ingliz adabiyotidagi obrazlar asosida til kompetensiyasini	2210
Shoyimqulova Mahzuna Shavkatovna	
Iste'molchilar motivatsiyasida afzal ko'rish nazariyalaridan foydalanish	2214
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
Davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta'minlash orqali budjet samaradorligini oshirish yo'llari.....	2220
Turganbaev Nursultan Bayram uli	
Hududiy notenglikni kamaytirishda ta'lim resurslarini boshqarish strategiyasi	2224
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna	
Adapting Global Project Management Frameworks for Innovation in Transitional Economies: A Case Study of Uzbekistan's Textile Industry.....	2229
Qingming Dong	
Тенденции развития финансового рынка в узбекистане.....	2234
Мадреимов Айтбай Оразбаевич, Мамутов Кутлымурат Зафар улы	
Экономическая сущность монетарной политики	2239
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Mintaqada turizm sanoatini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	2247
Salayeva Dilrabo Abdullayevna	
Тенденции и перспективы развития международного туризма в узбекистане.....	2251
Мамаризоев Жахонгир Исохонович, Тураева Сурия Тельмановна	
LMA va LSTA tajribasi asosida o'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini rivojlantirish yo'llari	2256
G'ofurov Javohir Jahongir o'g'li	
Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish.....	2261
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li, Rasulov Ulug'bek Obidjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotni barqaror o'sish sharoitida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda hududlarning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash masalalari.....	2266
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Приоритетные направления дальнейшего развития экономики путем совершенствования операций с ценными бумагами акционерных обществ	2271
Ботиров Азамат Ахмедович, Маликова Угиллой Абдурасуловна	
Barqaror iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy inkluzivlikning rolini kuchaytirish; resurslar taqsimotining tizimli yondashuvi	2276
Xomidova Kamola G'olib qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	2280
Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich	
Xorijiy mamlakatlarda bank-moliya sohasi rivojlanishida sun'iy intellekt va yuqori texnologiyalarning ta'siri.....	2286
Musagaliyev Ajiniyaz Jumagulovich	
MS Excel dasturidagi son ko'rinishida bo'lgan pul miqdorini o'zbek tilidagi so'zlar bilan ifodalash.....	2291
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna	



Joydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	2299
Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi	
Yashil logistika konsepsiyasining barqaror rivojlanishda tutgan o'rni.....	2305
Boltayeva Shaxnoz Bebudovna, Muxamedova Sevara Azamatovna	
Turizm biznesi tushunchasi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati	2312
Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna	
O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida mintaqalar iqtisodiyotining ahamiyati va rivojlanish jarayonlarining empirik tahlillari	2314
Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish orqali tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash	2320
Jubanova Bayramgul, Xojamuratova Guljaxan Nishanbay qizi	
Islom iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari	2326
Muyassar Ziyaviddinovna Muxitdinova, Dilshod Sagdullayevich Muxitdinov	



ISLOM IQTISODIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muyassar Ziyaviddinova Muxitdinova

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsent v.b., PhD
muyassarmukhitdinova@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0002-9365-2600>

Dilshod Sagdullayevich Muxitdinov

Oriental universiteti magistranti
dilshodxon1980@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola nazariy maqola bo'lib, islom iqtisodiyoti tizimining asosiy tamoyillari va uni dunyoviy iqtisodiy modellar bilan solishtirganda ajralib turadigan o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Islom iqtisodiyotining adolat, halollik, riboga qarshi kurash, ijtimoiy tenglik va jamoat manfaatlarini ustun qo'yish kabi asosiy tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, maqolada islom moliyaviy institutlarining faoliyati, foizsiz bank tizimi, zakot va boshqa ijtimoiy moliyaviy mexanizmlarning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri muhokama qilingan. Tadqiqotda islom iqtisodiyoti modeli nafaqat diniy tamoyillarga asoslangan, balki amaliy jihatdan ham barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qodir tizim sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy adolat, islom iqtisodiyoti, nazariy tadqiqot.

Abstract: This theoretical article analyzes the fundamental principles of the Islamic economic system and its distinctive features compared to secular economic models. It highlights core values such as justice, honesty, prohibition of usury, social equality, and prioritization of public interest. The article also discusses the role of Islamic financial institutions, the interest-free banking system, zakat, and other socio-financial mechanisms in promoting economic development. The study demonstrates that the Islamic economic model is based not only on religious principles but also on practical mechanisms capable of ensuring stability and social justice.

Key words: economic justice, Islamic economy, theoretical research.

Аннотация: В данной теоретической статье анализируются основные принципы исламской экономической системы и её отличительные особенности по сравнению с светскими экономическими моделями. В частности, рассматриваются такие фундаментальные принципы, как справедливость, честность, борьба с ростовщичеством, социальное равенство и приоритет общественных интересов. Также в статье обсуждается деятельность исламских финансовых институтов, беспроцентная банковская система, закят и другие социально-финансовые механизмы и их влияние на экономическое развитие. Результаты исследования показывают, что исламская экономическая модель основывается не только на религиозных принципах, но и включает практические механизмы, способные обеспечить устойчивость и социальную справедливость.

Ключевые слова: экономическая справедливость, исламская экономика, теоретическое исследование.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy tizimlar globallashtirish, raqamli transformatsiya va moliyaviy integratsiya jarayonlari ta'sirida murakkab va ko'p qirrali tuzilishga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayonda barqarorlik, adolat va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar iqtisodiy siyosat va moliyaviy faoliyatning ajralmas elementi sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, shariatga asoslangan iqtisodiy model – islomiy iqtisodiyot zamonaviy global iqtisodiy makonda muhim alternativ yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Islomiy iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyatni diniy-axloqiy mezonlar asosida tashkil etuvchi ilmiy-amaliy sohaga mansub bo'lib, u adolatli daromad taqsimoti, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi mas'uliyatli sheriklik va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan. Shariatga asoslangan ushbu yondashuvda ribo (foiz), maysir (qimor), gharar (noaniqlik) kabi elementlar qat'iyan taqiqlanadi, foyda–zarar taqsimoti asosidagi shartnomaviy munosabatlar esa asosiy moliyaviy mexanizm sifatida qo'llaniladi.

So'nggi yillarda islomiy moliyaviy tizim xalqaro moliya bozorlarida sezilarli darajada o'sib bormoqda: 2023-yil holatiga ko'ra, islomiy moliyaviy aktivlar hajmi 3 trillion AQSH dollariga yaqinlashdi.



O'zbekiston iqtisodiy siyosatida ham islomiy moliya konsepsiyasining joriy etilishi davlatning moliyaviy tizimini diversifikatsiya qilish, investitsiya muhitini kengaytirish va xalqaro moliyaviy hamkorlikning yangi bosqichga o'tishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 2021–2023-yillarda islomiy moliyaga nisbatan yuridik asoslar takomillashtirilib, “halal” sertifikatlash tizimi, muqobil moliyaviy xizmatlar va xorijiy hamkorlik doirasida bir qator tashabbuslar amalga oshirildi. Bu esa O'zbekistonning Markaziy Osiyoda islomiy moliya yo'nalishida yetakchi bozorlardan biriga aylanishiga turtki bo'lmoqda.

Islomiy bank faoliyatida mudoraba, mushoraka, murabaha va ijara kabi shartnomaviy vositalar orqali investitsiya faoliyati moliyalashtiriladi. Bunda moliyaviy operatsiyalar real iqtisodiy faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, spekulativ vositalarning cheklanishi tizimning iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi. Banklar mijozlari bilan sheriklik asosida ishlaydi, foyda va risklar esa adolatli taqsimlanadi. Shu tarzda, islomiy bank tizimi nafaqat moliyaviy natijadorlik, balki ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga ham mos ravishda shakllanadi.

O'zbekistonda “Halal Invest”, “Zamon Invest” kabi moliyaviy kompaniyalar orqali shariat asosida xizmatlar ko'rsatilmoqda, hamda ayrim tijorat banklari “Islomiy oynalar” mexanizmi orqali yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etmoqda. Shu bilan birga, Markaziy bank va Moliya vazirligi huzurida bu sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda. Islomiy moliyaviy mahsulotlarning integratsiyasi orqali iqtisodiyotning turli segmentlariga xizmat ko'rsatish imkoniyati kengaymoqda.

Islomiy moliya sektorining istiqbollari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xalqaro halal investitsiyalarni jalb etish;
- infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni shariatga muvofiq moliyalashtirish;
- mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini foizsiz moliyalashtirish mexanizmlari;
- xalqaro islomiy moliya institutlari bilan barqaror va tizimli hamkorlik.

Shu jihatdan, mazkur tadqiqot islomiy iqtisodiyotning xalqaro bank-kredit munosabatlaridagi o'rni, O'zbekistonga kirib kelishining ilmiy asoslari, milliy bank tizimidagi amaliy tatbiqlari hamda istiqbolli yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy vazifasi – O'zbekistonda shariatga asoslangan moliyaviy tizimni shakllantirish imkoniyatlarini tahlil qilish, mavjud holatni baholash va rivojlanish istiqbollarini aniqlashdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot sifatli tadqiqot (qualitative research) yondashuviga asoslanib, nazariy-tahliliy yo'nalishda olib borildi. Tadqiqotning asosiy metodologiyasi kutubxona tadqiqoti (library research) bo'lib, u mavzu doirasida mavjud ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish orqali zarur ma'lumotlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Tadqiqotning mazkur shakli mavzuga oid nazariyalarni chuqur anglash, ilmiy asoslangan qarashlarni shakllantirish va mavjud g'oyalarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida birlamchi va ikkilamchi manbalar tahlil qilindi.

Birlamchi manbalar – bevosita mavzu bo'yicha yaratilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, ilmiy hisobotlar, shariat hujjatlari va iqtisodiy tavsifga ega huquqiy-normativ hujjatlardir.

Ikkilamchi manbalar – birlamchi manbalarga tayanib yozilgan sharhlar, konspektlar, tahliliy maqolalar va statistik tahlillarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida kuzatuv asosidagi tahliliy yondashuv (observational analysis) yordamida mavjud holatdagi ilmiy va amaliy manbalar o'rganildi. Bu orqali islomiy iqtisodiyot va moliya tizimining nazariy asoslari, ularning xalqaro va milliy bank tizimidagi tatbiqlari bo'yicha mavjud yondashuvlar umumlashtirildi. Shuningdek, stol tadqiqoti (desk research) asosida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

1. Nazariyani aniqlash va adabiyot tanlash

Mavzuga aloqador ilmiy nazariyalar, tamoyillar va yondashuvlar aniqlanib, ular bo'yicha muhim manbalar – ilmiy maqolalar, kitoblar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil qilindi.

2. Adabiyot tahlili (literature review)

Adabiyot tahlili ilmiy tadqiqotning muhim bosqichi bo'lib, u orqali mavjud nazariy asoslar aniqlanib, mavzuga oid ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar baholandi. Bu tadqiqotda adabiyot tahlili orqali shariat asosida ishlovchi moliyaviy tizimlarning o'ziga xos jihatlari, O'zbekistonga joriy etilish holatlari va xalqaro tajriba o'rganildi. Bu esa mavzuning ilmiy asoslanganligini mustahkamladi.

3. Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish

Tadqiqot davomida olingan nazariy ma'lumotlar uch bosqichli yondashuv asosida qayta ishlanib, tahlil qilindi:

Ma'lumotlarni qisqartirish (Data Reduction): Mavzuga aloqador bo'lmagan ma'lumotlar chiqarib tashlanib, eng dolzarb va ilmiy asosga ega bo'lganlari ajratib olindi.

Ma'lumotlarni taqdim etish (Data Presentation): Qisqartirilgan ma'lumotlar tizimli, tushunarli va mantiqiy ketma-ketlikda tartibga solinib taqdim etildi.



Xulosa chiqarish (Conclusion): Olingan natijalar umumlashtirilib, asosiy ilmiy muammoga javob izlandi hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun takliflar ilgari surildi.

Ushbu tadqiqot metodologiyasi mavzuning ilmiy mazmunini ochib berish, mavjud bilimlarni umumlashtirish va yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirish imkonini yaratdi. Adabiyotlar asosida tahlil qilish orqali islomiy iqtisodiyotning nazariy asoslari, bank tizimidagi tatbiqlari va istiqbollari chuqur tahlil qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islomiy iqtisodiyotga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalish global miqyosda nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganilgan. Jumladan, Muhammad Umar Chapra, Monzer Kahf, Abdus Sattar Abu Ghuddah kabi nufuzli islomiy iqtisodchilar asarlarida islomiy moliya tamoyillarining zamonaviy iqtisodiy tizimdagi ahamiyati, ribo va ghararning taqiqi, shuningdek, foyda–zarar asosidagi moliyalashtirish modellari batafsil tahlil etilgan. Chapra (2000) o'zining "The Future of Economics: An Islamic Perspective" asarida islomiy iqtisodiyotni nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy adolat va axloqiy mas'uliyatni birgalikda ta'minlovchi muqobil model sifatida ko'rsatadi. Kahf (2006) esa islomiy bank mahsulotlarining xalqaro moliyaviy bozorlardagi uyg'unlashuv jarayoniga doir konseptual va amaliy tahlilni ilgari suradi.

Mahalliy mualliflar orasida M.A. Xoshimov, Z.I. Hakimov, Sh.M. G'ulomov va D.S. Qurbonov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda islomiy moliya institutlarining joriy etilishi, ularning huquqiy bazasi va iqtisodiy samaradorligi masalalari yoritilgan. Xususan, Z.I. Hakimov "Islomiy bank tizimining nazariy asoslari va uni O'zbekiston iqtisodiyotida qo'llash istiqbollari" mavzusidagi ilmiy maqolasida mamlakatda bu tizimni amaliyotga tadbqiq qilishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif etadi. M.A. Xoshimov esa Markaziy Osiyo mintaqasida islomiy moliyaviy mexanizmlarning imkoniyatlari va cheklovlarini iqtisodiy-statistik usullar asosida tahlil qilgan.

Muallif ushbu adabiyotlar asosida shunday xulosaga keladiki, islomiy iqtisodiyot nazariy jihatdan boy va mukammal asosga ega bo'lib, uni zamonaviy bank tizimlariga uyg'unlashtirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, O'zbekiston kabi islomiy qadriyatlar muhim o'rin tutadigan jamiyatlar uchun bu model ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotchi sifatida muallif ushbu mavzuni chuqur o'rganish, mahalliy kontekstga moslashtirish va islomiy moliyaviy amaliyotlarni milliy bank tizimida joriy etish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish zarur, degan fikrda. Islomiy iqtisodiyotning asosiy tamoyillari – adolat, shaffoflik va mas'uliyat – bugungi global moliyaviy muhitda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan barqaror va insonparvar modelni shakllantirishga asos bo'la oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimida islomiy moliya tamoyillarining joriy etilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ayni paytda mamlakatda 12 ta bank, jumladan "Agrobank", "O'zsanoatqurilishbank", "Mikrokreditbank", "Ipak yo'li" banki va boshqalar Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICD) bilan hamkorlikda murobaha asosidagi islomiy moliyaviy xizmatlarni taqdim etmoqda. Shu jumladan, "Trastbank" tomonidan tashkil etilgan "Trast Muamalat" sho'ba korxonasi orqali islomiy lizing (ijara) xizmatlari ham taklif qilinmoqda.

2018-yil may oyida e'lon qilingan prezident qarori loyihasida O'zbekistonda islomiy bank infratuzilmasini yaratish, foiz (ribo) asosidagi daromad olishni taqiqlash, foyda va zararlarni sheriklik asosida taqsimlash, shuningdek, sukuk, takaful, ijara va boshqa shariatga mos moliyaviy instrumentlarni huquqiy jihatdan tartibga solish zarurligi ta'kidlangan. Bu takliflar mamlakatda islomiy moliya xizmatlarini kengaytirish bo'yicha strategik yondashuvning shakllanayotganidan dalolat beradi.

Taqqoslash uchun, musulmon aholisi taxminan 90 foizni tashkil etuvchi Bangladesh islomiy moliya tizimini muvaffaqiyatli joriy etgan davlatlardan biridir. Hozirda islomiy banklar ushbu mamlakat moliya tizimida 30 foiz ulushga ega bo'lib, islomiy bank sektorining umumiy hajmi 48,1 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Mamlakatdagi jami bank omonatlari ichida 27 foiz islomiy moliyaviy institutlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. IFSB (Islamic Financial Services Board) ma'lumotlariga ko'ra, Bangladeshning jahon islom moliya tizimidagi ulushi 2,3 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich bo'yicha u Indoneziyadan (2,1%) ham o'zib ketgan. E'tiborlisi, Indoneziya musulmonlar soni bo'yicha (taxminan 250 million) Bangladeshdan (150 million) ancha oldinda turadi.

O'zbekiston sharoitida olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalari ham islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj va ijtimoiy tayyorgarlik darajasini tasdiqlaydi. O'tkazilgan so'rovnomalarga ko'ra, agar mamlakatda islomiy bank tizimi faoliyat yuritrsa, 44 foiz korxonalar va 42 foiz jismoniy shaxslar o'z mablag'larini islomiy omonatlar yoki sheriklik asosidagi loyihalarga yo'naltirishga tayyor ekanliklarini bildirgan.

Yana bir e'tiborga molik jihat — respondentlar "Islom tamoyillariga asoslangan daromadli omonat yoki sheriklik bitimlariga qancha mablag' yo'naltirgan bo'lardingiz?" degan savolga quyidagi tarzda javob berganlar: 26,3 foiz jismoniy shaxslar 1 mln – 5 mln so'm, 23,7 foiz esa 20 mln so'mdan ortiq bo'sh mablag'larini islom banklariga omonat sifatida joylashtirishga tayyor ekanliklarini bildirgan.



Mutaxassislar hisob-kitoblariga ko'ra¹, O'zbekistonda shariatga muvofiq islomiy depozit xizmatlari yo'lga qo'yilganda, 50 trillion so'mdan (taxminan 4,4 milliard AQSH dollari) ortiq mablag'ni aholining omonat sifatida moliyaviy institutlarga jalb etish imkoniyati mavjud. Bu nafaqat bank tizimining resurs bazasini kengaytiradi, balki investitsiyaviy faollikni oshiradi, ayniqsa, mikro, kichik va o'rta biznesni islomiy moliyaviy vositalar orqali barqaror qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.

So'nggi uch yilda islom moliyasi jahon miqyosida barqaror o'sishni namoyon etmoqda. 2022-yilda islom moliyaviy aktivlari 11% ga o'sib, 4,5 trillion AQSH dollariga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024-yilda 5,5 trillion dollarga, 2028-yilda esa 7,5 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Bu o'sish, ayniqsa, islomiy bankchilik, sukuq (islomiy obligatsiyalar) va takoful (islomiy sug'urta) singari sektorlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Masalan, 2024-yilda sukuq bozori 25,6% ga o'sdi, bu esa suveren va korporativ emissiyalarga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liqdir.

O'zbekistonda islom moliyasi sohasidagi faoliyat so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. 2024-yilda Markaziy bank mikromoliyaviy tashkilotlari uchun AAOIFI standartlariga mos islomiy moliya qoidalarini tasdiqladi va mamlakat Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashiga (IFSB) a'zo bo'ldi. Bu qadamlar shariatga muvofiq bankchilik uchun huquqiy asos yaratdi. 2025-yil fevral oyida davlatga qarashli Agrobank Standard Chartered va Islomiy investitsiya va eksport kreditini sug'urta qilish korporatsiyasi bilan 160 million yevro miqdoridagi Murobaha moliyalashtirish shartnomasini imzoladi. Bu O'zbekistondagi birinchi yirik islomiy savdo krediti bo'lib, fermerlar va kichik bizneslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

O'zbekistonda islom moliyasi bozori hozircha rivojlanish bosqichida bo'lib, 2028-yilga kelib aktivlar hajmi 1,1 milliard dollarga, 2033-yilga kelib esa 2,4 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu o'sish mamlakatdagi katta musulmon aholisi va shariatga muvofiq moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq. 2024-yilda Markaziy bank mikromoliyaviy tashkilotlari uchun islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha qoidalarni tasdiqladi, bu esa shariatga muvofiq moliyalashtirishning huquqiy asosini yaratdi.

Hozirda O'zbekistonda to'liq islomiy banklar mavjud emas, ammo ayrim tijorat banklari islomiy moliya xizmatlarini taklif qilishni boshlagan. Masalan, 2023-yilda Trastbank «Trast Muomalat» nomli islomiy moliya bo'limi orqali Murobaha va Ijara asosidagi mahsulotlarni taklif etishni boshladi. Shuningdek, 2021-yilda Markaziy bank raisi Mamazizo Nurmurodov mamlakatda 14 ta bankda islomiy "vino"lar ochish ustida ish olib borilayotganini ma'lum qilgan (1-jadval).

1-jadval. So'nggi uch yilda global va O'zbekistondagi islom moliyasi sohasidagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar, huquqiy islohotlar, amalga oshirilgan kelishuvlar.

Ko'rsatkichlar	Qiymat / Holat
Jahon bo'yicha islomiy moliyaviy aktivlar (2022)	4,5 trln. AQSH dollari
Jahon bo'yicha islomiy moliyaviy aktivlar (2024 prognozi)	5,5 trln. AQSH dollari
Jahon bo'yicha islomiy moliyaviy aktivlar (2028 prognozi)	7,5 trln. AQSH dollari
Sukuk bozori o'sishi (2024)	25,6%
O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish (Agrobank, 2025)	160 mln. yevro
O'zbekistonda islomiy moliyaviy aktivlar prognozi (2028)	1,1 mlrd. AQSH dollari
O'zbekistonda islomiy moliyaviy aktivlar prognozi (2033)	2,4 mlrd. AQSH dollari
AAOIFI reglamenti qabul qilinishi	2024-yilda tasdiqlangan
IFSBga a'zolik	2024-yilda rasmiy a'zo bo'lindi
Tijorat banklarida islomiy xizmatlar soni (rejada)	2030-yilgacha kamida 3 ta bank
Trastbankda islomiy moliyaviy xizmatlar joriy etilishi	2023-yilda 'Trast Muomalat' bo'limi ochildi
Shariatga muvofiq moliyaviy xizmatlarga talab omillari	Aholida diniy e'tiqodga mos xizmatlarga ehtiyoj katta

1 <https://islommoliyasi.uz/uz/6612/>



Islom moliyasi O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim vosita bo'lishi mumkin. Shariatga muvofiq moliyaviy xizmatlar aholining keng qatlamlarini moliyaviy tizimga jalb etish, kichik va o'rta bizneslarni qo'llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilash imkonini beradi. Ammo bu sohaning rivojlanishi uchun huquqiy va institutsional asoslarni mustahkamlash, kadrlar tayyorlash va jamoatchilikni xabardor qilish ishlarini kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va standartlarni inobatga olgan holda, milliy islomiy moliya modelini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu yo'nalishdagi izlanishlar va amaliy chora-tadbirlar O'zbekistonda islom moliyasining barqaror va samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida Islomiy iqtisodiyotning uchta asosiy jihati – uning tamoyillari, konseptual g'oyalari va iqtisodiyotning turli sohalaridagi amaliy tatbiqlari chuqur o'rganildi. Islomiy iqtisodiyot boylikni adolatli taqsimlash, sudxo'rlik (ribo)dan tiyilish, halol daromad manbalarini rag'batlantirish va jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga qaratilgan yondashuvi bilan ajralib turadi. Ushbu tizim, ayniqsa, adolat, muvozanat va barqarorlik tamoyillariga asoslanganligi bilan zamonaviy iqtisodiy modellardan farq qiladi.

Islomiy moliyaviy tizimda foizning taqiqlanishi, zakotning majburiyligi va halol-harom tushunchasining markaziy o'rinda turishi moliyaviy vositalarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, murabaha, ijara va mudaraba kabi moliyaviy mexanizmlar bank-moliya, investitsiya va tadbirkorlik sohalarida samarali qo'llanilib, iqtisodiy faoliyatni shariat mezonlari asosida tashkil etish imkonini beradi.

Huquqiy bazani takomillashtirish:

Islomiy moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi moliya sektori doirasida AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) va IFSB (Islamic Financial Services Board) standartlariga muvofiq qonunchilik asoslarini yaratish zarur. Bu nafaqat normativ-huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki xorijiy islomiy investorlar uchun ishonchli muhit shakllantiradi.

Maxsus islomiy moliya institutlarini tashkil etish:

To'liq islomiy tamoyillarda ishlaydigan bank va moliyaviy institutlarni tashkil etish muhim. Shuningdek, mavjud tijorat banklarida "islomiy oynalar" (Islamic Windows) tizimini kengaytirish orqali shariatga muvofiq xizmatlar ko'lamini oshirish mumkin.

Moliyaviy savodxonlik va kadrlar salohiyatini oshirish:

Islomiy iqtisodiyot va moliya sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislar tayyorlash uchun oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish markazlarida ixtisoslashgan o'quv kurslari va magistratura yo'nalishlarini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, jamoatchilik orasida moliyaviy savodxonlikni oshirish, ayniqsa, halol moliya vositalarining afzalliklari haqida tushuntirish ishlari olib borilishi zarur.

Sukuq va mudaraba asosida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish:

Davlat infratuzilma loyihalari, ayniqsa transport, energetika va qishloq xo'jaligi sohalarida sukuq (islomiy obligatsiya) va mudaraba mexanizmlaridan foydalanish orqali shariatga mos investitsion manbalarni jalb etish mumkin.

Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash:

O'zbekistonning Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ECO), Islom Taraqqiyot Banki (IsDB) va boshqa xalqaro islomiy moliya institutlari bilan strategik sheriklik doirasini kengaytirish orqali texnik ko'mak, investitsiya himoyasi va innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish imkoniyatlari ortadi.

Halol sertifikatlash tizimini joriy qilish va nazorat qilish:

Halol moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va investitsiya vositalarini aniqlash va tasdiqlash uchun xalqaro akkreditatsiyalarga mos halol sertifikatlashtirish tizimini milliy darajada yo'lga qo'yish taklif etiladi. Bu tizim mustaqil Shariat kengashi tomonidan nazorat qilinishi lozim.

Islomiy iqtisodiyot nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham zamonaviy iqtisodiy muammolarga axloq asoslangan, insoniylik va ijtimoiy adolatga yo'naltirilgan yechimlarni taklif eta oladi. Bu esa uni global iqtisodiy muhitda raqobatbardosh va barqaror muqobil tizim sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alfian, M., Wahyudi, R., Maimunah, M. B. A., & Riduan, R. (2023). Financial stability in Indonesian Islamic banking using Z-Score: Before and during Covid-19. *Al-Uqud: Journal of Islamic Economics*, 7(1), 17–32. <https://doi.org/10.26740/aluqud.v7n1.p17-32>
2. Faudzi, M., Khoirudin, R., Afifah, H. L. N., & Abasimi, I. (2023). Analysis of the welfare of tobacco farmers in Banaran Village, Tembarak District, Temanggung Regency. *Jurnal Mebis*, 8(2), 109–120. <https://doi.org/10.33005/mebis.v8i2.443>
3. Faudzi, M., Salsabila, T., Putra, M. A. R. G., Salim, A., Lubis, F. R. A., Khoirudin, R., & Ghazali, M. (2023). The analysis of the development of Islamic economic system in Europe with the increasing capacity of Muslims as a minority. *Al-Iktisab*, 7(1), 95–112. <https://doi.org/10.21111/aliktisab.v7i1.10001>



4. Khan, M. A. (1994). An introduction to Islamic economics. The International Institute of Islamic Thought.
5. Rahman, H. Y., Lubis, F. R. A., Putra, M. A. R. G., Yuandita, R., & Khoirudin, R. (n.d.). Environmental Kuznets Curve Hypothesis: Before and After Sustainable Development Goals. *KnE Social Sciences*, 1–10.
6. Riduwan, Ilyas, H., & Adha, A. M. (2023). Corporate zakat in the perspective of stakeholder theory: A case study of Islamic rural banks. *Afkaruna*, 19(1). <https://doi.org/10.18196/afkaruna.v19i1.16329>
7. Riduwan, R., Mutmainah, L., & Wahyudi, R. (2020). Islamic social reporting disclosure of Sharia commercial banks in Indonesia: A form of social responsibility. *Shirkah: Journal of Economics and Business*, 5(3), 337. <https://doi.org/10.22515/shirkah.v5i3.336>
8. Riduwan, R., & Wahyudi, R. (2018). Contribution of macroprudential policy of central bank on microprudential Islamic banking. *INFERENSI: Jurnal Penelitian Sosial Keagamaan*, 11(2), 291–308. <https://doi.org/10.18326/infs13.v11i2.291-308>
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2007–2023). Hilol Nashr. Nashriyot-matbaasi. Sana: 2024.
10. Wahyudi, R., Mujibatun, S., & Riduwan. (2019). Debt and equity-based financing, size and Islamic banks profitability: Empirical evidence from Indonesia. *Iqtishadia*, 12(2), 227–239. <https://doi.org/10.21043/iqtishadia.v12i2.3539>
11. Ziyaviddinovna, M. M. (2022). Islamic economic system: Forgotten new institution to better life. *Global Transformations: Economics, Finance, Pedagogy*, 2(1), 105–114.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>